

Samarqand Davlat Universiteti , Kattaqo'rg'on filiali , Pedagogika fanlari doktori , Docent. Mustafayev Shomurod Normo'minovich taqrizi ostida

Pardayeva Sevara Abdunosir qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Emile: sevarapardayeva200@gmail.com

PEDAGOGLIK KASBINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RN

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagoglik kasbi dunyodagi eng qadimiy kasblardan biri ekanligi va pedagoglik kasbining mazmun mohiyati yoritilib berilgan. Bo'lajak pedagog talabalik davrlaridanoq kasbiy faoliyatida kerak bo'ladigan bilimlarni egallash va hu bilan birgalikda o'z kasbiga vijdonan kirishish talab etilishi aytib o'tilgan. Shu bilan bergalikda tajribali pedagoglarning pedagogiklik kasbi haqida ma'lumotlar qayd etilgan.

Kalit so'zlar: Pedagog, barkamol inson, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, pedagogik kasb, jamiyat, pedagogik texnika, pedagogik mahurat.

Kirish. Pedagogik kasb – bu barkamol inson sifatida xarakterlanuvchi ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlarining barqaror tizimidir. O'qituvchining o'z kasbiga ixlos qo'yishi va ijtimoiy ahamiyatini tushunib yetishi, bolalarga ta'sir o'tkazishi va ularga hamdardligini namoyon qila olishi shunday fazilatlar majmuasidirki, barchani pedagogik faoliyat va muloqoti bilan uyg'unlashib bit butunlikni tashkil qiladi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun ta'lim sohasida amalga oshiriladigan ishlarning maqsadi, vazifasi va yo'nalishlarini belgilab berdi. Bu vazifalarni amalga oshirish, avvalo o'qituvchiga, uning bilimi va kasb mahoratining shakllanganlik darajasiga bog'liq. Zero, o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni nechog'lik vijdon, aql va pedagogik mahorat bilan bajarilishi jamiyat kelajagini ta'minlovchi muhim omildir.

Asosiy qism. O'qituvchilik kasbi o'z mohiyatiga ko'ra, o'ta individualdir. Har bir o'qituvchining muhit hayotiy o'zni o'z ishining ustasi bo'lishidir. Master (usta) juda ilg'or, bilimdon yoki o'z ishining mohirlik bilan bajaruvchi deb ifodalanadi. O'qituvchi mahorati uning faoliyatida ko'rinadi. O'qituvchi avvalo pedagogik jarayonning qonuniyatlari va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo'lishi lozim. Shu ma'noda pedagogning umumlashgan malakalari, uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga ega. Mahorat – bu alohida qudrat. Mahorat yuqori va kichik darajada bo'lishi mumkin. Mahoratga erishish va erishmaslik ham mumkin. "Haqiqiy usta mehnat faoliyati chog'idagina go'zaldir"¹. Pedagogik mahoratga yetishish o'qituvchining muayyan shaxsiy sifatleri bilan amalga oshadi.

Pedagog kasbi dunyodagi eng qadimgi kasblardan biri bo'lib, uning ijtimoiy ahamiyati ayni paytda ham hech qachon yuqolmagan. Pedagoglik kasbi qator muhit talablariga javob berishi kerak. Musatqil O'zbekistonda qurilayotgan demokratik huquqiy davlatda faoliyat ko'rsatayotgan pedagog qanday bo'lishi kerak? Hozirgi zamon pedagogining shaxsi uchun eng muhim asos – bu insonparvarlik. Pedagog juda yuksak darajadagi madaniyatga ega bo'lgan shaxs. O'z zamonasida A.Navoiy hazratlari ham o'zining "Mahbub ul-qulub" asarida o'qituvchi odobi, mahoratiga doir quyidagi mulohazalarni bayon etgan:

- "Mudarris ota-onasining mansabi, boyligiga qarab bolaga muomala qilmasligi kerak;

¹ Azizxodjayev A.A. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. 2003 yil 139 bet.

- Muallim bolalarga biladigan narsalarini o'rgatishi, bilmagan ilmlarni o'rgatishga urunmasligi kerak;
- Muallim yaramas ishlardan, nopokliklardan yiroq bo'lishi kerak"².

Bugungi kunda o'qituvchi yoshlarni g'oyaviy-siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot tafakkur qonuniyatlarini puxta egallashga ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim bo'lgan vazifalarni hal etadi. Insoniyat yashayotgan hamma jamiyatlarda ham barcha insonlar kasbiy tarbiyachi sifatlariga ega bo'lib tug'uladi. Masala shundaki, ularni hammasini pedagogik mahoratga o'rgatish zarur. Bizlar talantli insonlar hisobidan tarbiyani amalga oshirishimiz mumkinmi? Yo'q. Shuning uchun, faqat mahorat to'g'risida gapirish mumkin, ya'ni haqiqatda ishlarni biluvchi, tarbiyalash haqida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan kishi haqida gapirish mumkin. "Mutaxassislik va bilimga asoslangan mahorat hamma masalalarni ham qila oladi"³ - degan edi rus pedagogi A.S.Makarenko. A.S.Makarenko so'zini davom etib, - "Tarbiyachi o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati uni tarbiyalasin va har doim o'zining nima xohlaganini va nimani xohlamasligini bilishi zarur. Agar tarbiyachi buni bilmasa, u kimni tarbiyalay oladi?". Nemis pedagogi Adolf Disterveg o'qituvchining doimiy ravishda fan bilan shug'ullanishi haqida gapirib shunday degan edi: "O'qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug'ullanmog'i lozim. Aks holda, u qurigan daraxt va toshga o'xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva berolmaganidek, kelajakda bunday o'qituvchidan hech qanday natija kutib bo'lmaydi".

A.S.Makarenko bo'lajak pedagog talabalik davridayoq pedagogik mahorat sirlarini o'rganishi zarurligini ta'kidlab bunday deydi: "Nima uchun texnika oliy ta'lim muassasalarida materiallar qarshisida o'qitiladiyu, ammo pedagog o'quv yurtlarida tarbiya jarayonida, unga shaxsning qarshilik ko'rsatishi haqidagi fan o'qitilmaydi". Buyuk pedagogning fikriga Ukraina pedagogika institutining (A.S.Makarenko bu dargohda ishlagan) olimlari juda katta mas'uliyat bilan qaraydi. Ular bir necha yillar davomida A.S.Makarenko pedagogik mahorat maktabini, mavjud bo'lgan ilg'or pedagogika nazariyasi va amaliyotini atroflicha tahlil qiladilar. Natijada, 1979 yilda "Pedagogik mahorat asoslari" o'quv fani yaratildi va u barcha oliy pedagogika ta'lim muassasalarida o'qitila boshlandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Pedagogika institutlari va universitetlarning pedagogika va psixologiya fakultetlarida ham reja asosida o'qitilmoqda. "Pedagogik mahorat asoslari" fanida pedagogik mahorat nimalarga bog'liq va unga qanday qilib erishiladi. Mahoratli pedagog bo'lishi uchun nimalarga e'tibor berish zarur kabi savollarga javob beramiz. "Pedagogik mahorat" fanining maqsadi – talabalarda pedagogik jarayonini mustaqil yuqori saviyada tashkil etish va o'z faoliyatida eng yuqori samaradorlikka erishishda malakalarni shakllantirish bo'lib hisoblanadi.

O'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligi shartli ravishda quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

1. O'qituvchining shaxsiy fazilatlar bo'yicha tayyorgarligi;
2. O'qituvchining ruhiy-psixologik tayyorgarligi;
3. O'qituvchining ijtimoiy pedagogik va ilmiy-nazriy jihatdan tayyorgarligi;
4. O'qituvchining maxsus va ixtisoslikka oid uslubiy bilimlarini egallab borishi;

Pedagogik mahorat bu pedagogik (o'quv-tarbiyaviy) jarayonning barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamolotlari tomon yo'naltirish, tarbiyalanuvchilarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish va ularda jamoat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otish. Inson faoliyatining boshqa turlari kabi pedagogik faoliyat ham o'z xususiyatlari bilan bir-

² Alisher Navoiy. "Mahub ul-qulub" T. 1986 yil, 142 bet.

³ Makarenko A.S. "Ta'lim-tarbiya jarayonidan ba'zi bir xulosalar" T. O'qituvchi. 1988 yil. 139 bet.

biridan ajralib turuvchi: maqsad, obyekt, subyekt va vositalardan tashkil topadi. Eng avvalo, pedagogik maqsadning o'ziga xosligini tushunishga harakat qilamiz. Ular quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni pedagogik faoliyat natijasi jamiyat manfaatlariga bog'liq. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama komil toptirishiga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligini ta'minlaydi. Bir avlod tajribasini ikkinchi avlodga o'tkazadi. Yoshlarni ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi.
2. Pedagogik faoliyat doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog'liq. Unda pedagogik maqsad talaba maqsadiga aylanadi. Unga erishish osonlikcha bo'lmaydi. Pedagog o'z faoliyati maqsadini va unga erishish yo'llarini aniq tasavvur qilish, maqsadga erishish talabalar uchun ham ahamiyatga ega ekanligini ularga anglata olishi zarur. Nemis faylasufi I.Gyote ta'kidlaganidek, "Ishonch bilan gapir, ana shunda so'z ham tinglovchilarni mahliyo qilish ham o'z-o'zidan kelaveradi".

O'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligi shartli ravishda quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

5. O'qituvchining shaxsiy fazilatlar bo'yicha tayyorgarligi;
6. O'qituvchining ruhiy-psixologik tayyorgarligi;
7. O'qituvchining ijtimoiy pedagogik va ilmiy-nazriy jihatdan tayyorgarligi;
8. O'qituvchining maxsus va ixtisoslikka oid uslubiy bilimlarini egallab borishi;

Yana ta'kidlash joizki, pedagogik mahorat o'qituvchilar hamda tarbiyachilar shaxsiy va kasbiy sifatlarning yig'indisi bo'lib, o'qituvchi mahoratini ta'minlovchi omillarni pedagogik-psixologik, metodik bilimlarni doimiy rivojlantirib borish lozim. Hozirgi davrda O'zbekistonda qurilayotgan demokratik huquqiy davlatda faoliyat yuritayotgan o'qituvchi qanday bo'lishi kerak? Hozirgi zamon o'qituvchisining muhim asosi – bu insonparvarlik yo'nalishi. O'qituvchi yuksak darajada umumiy madaniyatga ega kishidir. Demak, o'qituvchi pedagogik mahoratining asosini o'z ustida ishlab borishi, mustaqil o'qishi va izlanishi lozim. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ta'lim-tarbiya sohasida milliy odob-axloqni qayta tiklash borasida turli-tuman an'analarni joyiga qo'yish, milliy qadriyatlarni yanada rivojlantirish xususida keskin va buyuk ishlarni olib bormoqda. Davlatning buyuk kelajagi, albatta yoshlarni chuqur bilimli va pokiza axloq-odobga ega ekanligi yoddan chiqarmaslik kerak. Bu muammoda mahoratli, bilimli pedagoglarning o'rni va pedagogik mahorat o'quv fanining roli katta.

Hozirgi zamon o'qituvchisi uzluksiz ta'lim tizimida yangi tafakkur egasi, munosib shaxs, o'z ishining ustasi bo'lgan o'qituvchiga muhtoj. Shaxs sifatidagi bunday o'qituvchi har tomonlama rivojlangan, ilmiy tafakkurga ega bo'lgan keng ko'lamdagi umummadaniy va kasbiy ma'lumotli, o'zligini uzluksiz rivojlantirish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. "Yaxshi murabbiy bo'lgan taqdiridagina yaxshi o'qituvchi bo'lish mumkin" – degan edi **V.A.Suxomlinskiy**. Bo'lajak o'qituvchilar mukammal kasb egasi bo'lishi uchun quyidagilarni tavsiya etamiz:

1. O'qituvchining bilimdonligi;
2. O'qituvchining malakasi:
 - a) amaliy malakalar
 - b) o'zaro aloqalarga oid malakalar

3. Tashkilotchilik malakalari

a) faol talabalarni aniqlay olish;

b) talabalarga berilgan jamoa topshiriqlarining bajarilishi yuzasidan nazorat o'rnatish;

v) ota-onalar va jamoatchilik o'rtasidagi ishlarni tashkil etish;

Xulosa. Ta'kidlash joizki, pedagogik mahorat o'qituvchilar hamda tarbiyachilar shaxsiy va kasbiy sifatlarning yig'indisi bo'lib, o'qituvchi mahoratini ta'minlovchi omillarni pedagogik-psixologik, metodik bilimlarni doimiy rivojlantirib borish lozim. Hozirgi davrda O'zbekistonda qurilayotgan demokratik huquqiy davlatda faoliyat yuritayotgan o'qituvchi qanday bo'lishi kerak? Hozirgi zamon o'qituvchisining muhim asosi – bu insonparvarlik yo'nalishi. O'qituvchi yuksak darajada umumiy madaniyatga ega kishidir. Demak, o'qituvchi pedagogik mahoratining asosini o'z ustida ishlab borishi, mustaqil o'qishi va izlanishi lozim. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ta'lim-tarbiya sohasida milliy odob-axloqni qayta tiklash borasida turli-tuman an'analarni joyiga qo'yish, milliy qadriyatlarni yanada rivojlantirish xususida keskin va buyuk ishlarni olib bormoqda. Davlatning buyuk kelajagi, albatta yoshlarni chuqur bilimli va pokiza axloq-odobga ega ekanligi yoddan chiqarmaslik kerak. Bu muammoda mahoratli, bilimli pedagoglarning o'rni va pedagogik mahorat o'quv fanining roli katta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxodjayev A.A. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. 2003 yil 139 bet.
2. Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub" T. 1986 yil, 142 bet.
3. Makarenko A.S. "Ta'lim-tarbiya jarayonidan ba'zi bir xulosalar" T. O'qituvchi. 1988 yil. 139 bet.
4. Makarenko A.S. "Ta'lim-tarbiya jarayonidan ba'zi bir xulosalar" T. O'qituvchi. 1988 yil. 136 bet.